

FILOLOGIK TADQIQOTLAR:

TIL ADABIYOT TA'LIM

ISSN: 2181-1741 (print)
ISSN: 2181-1725 (online)

2023 / № 10/11



**Philological research:
LANGUAGE, LITERATURE,
EDUCATION**

**Филологические
исследования:
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА,
ОБРАЗОВАНИЕ**

phologicalresearch.uz



ILMIY-INNOVATION JURNAL

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

**PHILOLOGICAL RESEARCH:
LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION**

**FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
TIL, ADABIYOT, TA'LIM**

**ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ:
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ**

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2023/ № 10/11

Термиз – 2023



Muassis:
Termiz davlat universiteti

**PHILOLOGICAL RESEARCH:
LANGUAGE, LITERATURE,
EDUCATION**

**FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
TIL, ADABIYOT, TA'LIM**

**ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ:
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА,
ОБРАЗОВАНИЕ**

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda
1122 raqami bilan ro'yxatga olingan.
Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma
va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar
javobgardir. Jurnaldan ko'chirib
bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.11.2023

Qog'oz bichimi: 70x85

Bosma tabog'i: 5.94

Ofset bosma. Ofset qog'ozi

Adadi: 100

Bahosi kelishilgan narxda

Buyurtma: 155-son

"TerDU bosmaxonasi"da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi,
43-uy

Tahririyat manzili:

190111, Termiz shahri,

Barkamol avlod ko'chasi, 43.

Telefon: +998762231649

E-mail:

philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:

www.philologicalresearch.uz

BOSH MUHARRIR:

Abduqodir TOSHQULOV, iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor
(bosh muharrir o'rinbosari)

Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor
(mas'ul muharrir)

O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)

Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)

Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)

Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)

Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)

Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)

Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)

Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)

Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)

Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)

Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)

Dilmurod Qur'onov, f.f.d., professor (O'zbekiston)

Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)

Normat Yo'ldoshev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)

Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)

Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)

Asqar Eshmo'minov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)

Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O'zbekiston)

Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)

Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)

Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)

Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)

Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)

Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)

Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)

Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)

Shoira Amonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)

Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)

Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)

Zaynura Qodirova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev



Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH:
LANGUAGE, LITERATURE,
EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ

ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК,
ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL
JOURNAL

Registered by the Agency
for Information and Mass
Communications under the
President's Administration
of the of the Republic of
Uzbekistan on October 19,
2020 under number 1122.

The authors are responsible for the
accuracy of the examples, passages
and data provided in the texts. The
source must be specified when
copying from the journal.

Approved for printing: 28.05.2023
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the
"Printing House of the TerSU"
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
www.philologicalresearch.uz

EDITOR IN-CHIEF:

Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor
(Uzbekistan) (deputy chief editor)

Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences,
professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)

Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)

Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor
(Azerbaijan)

Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)

Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)

Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)

Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences,
professor (Uzbekistan)

Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)

Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)

Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)

Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor
(Uzbekistan)

Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)

Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)

Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)

Normat Yuldashev, cand.of philol. sciences,
associate professor (Uzbekistan)

Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)

Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences,
associate professor (Uzbekistan)

Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences,
associate professor (Uzbekistan)

Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)

Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)

Nurali Amonturdiyev, PhD (Uzbekistan)

Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)

Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)

Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)

Shoira Amonturdieva, PhD (Uzbekistan)

Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)

Zaynura Kadirova, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

ЧЎТМАТОВ ЖЎРАБЕК ОМОНОВИЧ

Дунё миқёсдаги янги нашр..... 7

ҲАКИМОВ МУҲАММАДҲОН, ҒАЗИЕВА МАФТУНА МУҲАММАДОВНА

Бадиий матнларда тағмаъно ва имплектив парадигма..... 12

AMONTURDIYEV NURALI RASHIDOVICH

Etnografik nominatsiya shakllanishida metaforaning ishtiroki 16

TURDIMURODOV SIROJIDDIN ESHQOBILOVICH

Ayrim ibora va maqollarning evfemikligi xususida 21

АМОНТУРДИЕВА ШОИРА РАВШАНОВНА

Диний матнларнинг жаҳон тилшунослигида ўрганилиши..... 25

AXMEDOVA NARGIZA SHIXNAZAROVNA

O'zbek tilida ko'p ma'noli so'zlar assotsiativ maydoni 32

NADIM MUHAMMAD HUMAYUN

Realia va uning turlari haqida ilmiy-nazariy qarashlar talqini..... 34

BOLTABOYEV SULTONBEK

Arab tilidagi “عَنْ” tub ko'makchisi ma'nolari 38

MINNIKULOV ISLOM UROL UGLI

Stylistic variation of conditional conjunctions in english 40

ДИЛРАБОХОН РУСТАМОВА

Лингвистик атамалари сўзлиги ва уларни тавсифлаш 45

ERGASHEVA DILRABO ALLANAZAROVNA

Qahramonlar nutqida intensiya(nutqiy niyat)ning fonatsion noverbal vositalar orqali ifodalanishi 53

ALMARDANOVA IRODA TOSHMAMATOVNA

O'zbek tilining izohli lug'atlaridagi sohaga oid terminlar talqini (Iqtisodiy terminlar misolida)..... 57

ABDULLAYEV DAVRON

Frazeologik birliklarning grammatik tavsiflari masalasi..... 60

ADAMBAEVA FERUZA RUSTAMBEKOVNA, SADULLAYEVA NILUFAR AZIMOVNA

Comprehensive analysis of synonymous terms in english biotechnological terminology 62

КАМАЛОВ УМИД

Функционально-семантическое поле оптативных единиц в русском и узбекском языках..... 67

XIDRALIYEVA ZOXIRA RISKULOVNA

Iqon shevasi leksikasining o'zbek adabiy tiliga munosabati 71

QODIROVA ZEBO GULBOYEVNA

Semantik texnologiyalar yaratishda ontologiyalardan foydalanish 74

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2023; 10/11
 ISSN: 2181-1741 (Print)
 ISSN: 2181-1725

IQON SHEVASI LEKSIKASINING O'ZBEK ADABIY TILIGA MUNOSABATI

Xidraliyeva Zoxira Riskulovna,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti katta o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

O'zbek shevalari lug'at tarkibi, ya'ni leksik boyligining asosiy qismi Sh.Shoadurahmonov fikriga ko'ra shevalararo turli fonetik variantlarni hisobga olmaganda, o'zbek umumxalq tili, shuningdek, adabiy tilning leksik boyligiga mos keladi¹. Ammo shevalarda shunday so'zlar ham uchraydiki, ularning ba'zilarining adabiy tilda yoki boshqa shevalarda sinonimi yo'q, ba'zilarining esa boshqa so'z bilan ifodalangan variantlari mavjud. Bunday ma'lum darajadagi leksik har xillik, jumladan, Iqon shevasida ham uchraydi, ularni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin: 1) *o'zbek adabiy tilida sinonimi bo'lgan sheva so'zlari*; 2) *o'zbek adabiy tilida sinonimi bo'lmagan sheva so'zlari*.

O'zbek adabiy tilida sinonimi bo'lgan sheva so'zlari:

i:lgi ~ anda:za. Kiyim bichish uchun qog'ozga olingan qolip, andaza: *E:nāš tikišni jaxšī tikkāni b'lām, i:lqisiz pičā:mmājdi. I:lgi o:sa, ö:zimām tikā bilāmā*. Shevada *i:lgi* so'zining sinonimi *anda:za* faol bo'lmasa-da, qo'llanadi. *Kö:jnāgi:η a:nda:zasī o:sa biči. Tikkān hā:mmā nā:sājiη i:lqisini a:p qo:jasan-a?*

xī:jlā ~ ancha. Narsa, hodisa, ish-harakatning miqdor, daraja, vaqt nuqtayi nazaridan "ko'proq" ma'nosini bildiradi: *Hā degāndā kālābemādi, xī:jlā kūtūbo:tirdim. Šum xa:barni ā:šitip, xī:jlā pā:jt jata:m-madim. xī:jlā* so'zi bilan birga miqdori aniq bo'lmagan, "ko'proq" ma'nosini ifodalovchi *talaj* so'zi ham parallel qo'llanadi: To'yda ancha odam bo'ldi ~ *To:jda xī:jlā // talaj a:dam odi*; Mehmondorchilikda ancha o'tirdik ~ *Me:ma:nda xī:jlā // talaj o:tirdiq. Bi talaj a:dam ba:rdiq. Me:ñām qo:līmdin talaj i:š kā:lād(i)*. Shuningdek, adabiy til va boshqa shevalardagi *ko'rkam, chiroyli* ma'nosini beruvchi oydek ~ *a:jdaq* so'zi ham miqdor-daraja ma'nosi (*ancha*)ni ifodalab keladi. *Je:η ža:jya a:jdaq* (tuppa-tuzuk) *ö:rgānip ke:tīñnā. A:jdaq* (*ancha*) *jo:l jūrip qo:jdīq*.

qo:qīs // ibīrsiq ~ *ivirsiq*. Uy-joyini ozoda tutmaydigan yoki o'zi ozoda yurmaydigan kishilarga nisbatan *qo:qīs* so'zi qo'llanadi: *Ša:jda žā: ibīrsiq tūrā:dākā, ö:jigā ki:rgiη kā:mājdi. Mundaq ibīrsiq*

a:dam he:ške:dā joq čīqa:r. Shevada *qo:qīs* va *ibīrsiq* so'zlari parallel qo'llanadi. *ibīrsiq* adabiy tildagi *ivirsiq* so'zining fonetik varianti bo'lib, *iflos yashamoq, iflos yurmoq* kabi ma'nolarini anglatadi.

qa:lža ~ gavda, tashqi ko'rinish. *Sa:brīniη kā:lini a:jday ā:kā, qa:lžasiηm kā:liškā:n ā:kā*.

süpüdi // sipindi ~ axlat. *Ha:vlīni mām süpürāmā, süpündisini sām a:.. Ö:j süpürgāndā sipindini a:maj, pe:šīη küligā qo:šīp qo:jado:n kö:jdīrgi kö:p*.

bo:yaz ~ homilador. *Bo:yaz* so'zi adabiy tilda qornida bolasi bor hayvonlarga nisbatan, Iqon shevasida esa ayollarga nisbatan ham shu so'z faol qo'llanadi. Ushbu shevada *homilador* so'zi, umuman, qo'llanmaydi, lekin *bo:yaz* so'zi bilan parallel "*bo'yida bor*", "*ikki qat*" "*kötäripti*" iboralari ham ishlatiladi: *Kā:nni bo:yaznājkā* (bo'g'oz ekanmi) // *bo:jida ba:nā-jkā* (bor ekanmi) // *i:kki qa:tnājkā* (ikki qat ekanmi) // *kötäripti-nā* (*homiladormi*)?

balaq ~ pocha: ishton, shimning pastki qismi: *Šimīniη ba:laiy žā: ke:η ākā, ā:zginā ta:rājīš kārāk*.

u:čipti ~ vafot etish, olamdan o'tish. Bizningcha, *uchmoq* so'zida "Qutadg'u bilig" asarida keltirilgan *ujmox // uchmaq* ~ jannat ma'nosiga urg'u berilib, ya'ni "*jannati bo'ldi*"² deyiladi. Chunki, *u:čipti* variantida faqat, chaqaloq, go'daklarning olamdan o'tishi nazarda tutiladi. *Bügün aza:nniqta Sa:bīriη bö:bāgi u:čipti. Me:rinsa:niη to:yyan ba:llari turyānāmās, bā:ri be:š-a:lti a:jliyiηda u:šyan*. Ushbu fe'lning shevada 1 yoshdan katta bo'lgan bolalar va kattalarga nisbatan *ö:lipti, qa:jtiš o:pti, ö:tipti* variantlari qo'llanadi: *Rā:sül ba:baη qa:jtiš o:pti. Ä:dil o:rtayī:η dā:dāsi ö:tip qa:pti. Jo:lda ābārjā o:p, šo:pīri ö:lipti*.

ča:čiq ~ dasturxon. Aslida bu so'zning asosi adabiy tildagi *sochiq* so'zidir. Ko'rinadiki, shevada *sochiq* fonetik o'zgarish bilan *ča:čiq* shaklida qo'llanadi hamda adabiy til va boshqa o'zbek shevalarida yuz-qo'lni artish uchun qo'llanadigan predmetni emas, balki *dasturxon* ma'nosini ifodalaydi: Qudaning oldiga dasturxon yoyib, yaxshilab kutinglar. ~ *Qudanīη a:ldīya ča:čiq sa:b, jaxšīlab kütīñnār*. Kelinsalomga katta,

¹ Ўзбек шевалари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1966. – Б. 5.

² Юсуф Хос Хожиб. Қутадғу билиг. Нашрга тайёрловчи Қ. Каримов. – Тошкент: Фан, 1971. – Б. 72.

oq dasturxon olgan edim. ~ *Kā:linkö:rdigā kā:ttā, a:q ča:čiq a:di:jdim*. Shevada yoshlar nutqida ushbu leksemaning *dāstirxa:n* varianti ham qo'llanadi. *Ö:jgā ö:t, sā:n üčün e:šigimizām, dāstirxa:nimīzam a:čiq*. Adabiy tildagi *sochiq* o'rnida esa, shevada *dasma:l* leksemasi qo'llanadi.

čā:ltik ~ maqtančoq. Kichkina jiyanim juda maqtanchoq, shu desangiz, kichkina ishni ham shishirib yuboradi. ~ *Šu kiškinā že:nim, žā: čā:ltik, kiškinā nā:sānijām ištirtibā:rādi*.

sa:q ~ sergak, hushyor. *Xuda:jam sa:q o:yannī saqlajma degān, kō:ziñā qa:ra, sa:q o:l*.

kā:pčik ~ childirma. *Kā:pčik* so'zi bilan birga *čildirmā // čirmāndā* varianti ham qo'llanadi. *Kā:pčik ča:lyanda Mā:mirža:n kā:pčikčigā je:tādo:n jo:q. A:jaš, Ma:jiš, A:zat to:tīñnar čildirmā ča:līp, āšū:lā e:dip, da:vranīñ güli:jdi-yu*.

mā:z ~ shod bo'lmoq. Biror narsadan xursand bo'lish. Qizim xursand bo'lib keldi. ~ *Qī:zīm mā:z o:p kā:di*.

ži:qilma:z ~ arg'imchoq. Daraxtning shoxiga yoki balandroqqa arqonning ikki uchini bog'lab, uchib o'ynash uchun ishlangan moslama. *Ja:š gā:zimizda tu:tya qilīnyan ži:qilma:sta rasa: o:jnajdo:ni:jdiq. Ā:siñdānā, šu ži:qilma:snī Mā:māt dā:dām qīp-pe:gāni:du:*

ū:rt ~ yopmoq. Kishilar ustiga ko'rpa yoki biror yengilroq narsani yopish *ū:rt* fe'li orqali ifodalanadi. *Ba:la uxlap qa:ptī, qozyatmaj ūstini ū:rtip qo:jasal. Jatyan a:damiñ ūstini ū:rtip qo:jiš kārāk, ja:masa tānāsi bā:zādi*. Shevada predmetlarning og'zini yoki ustini berkitish *yopmoq* fe'li orqali ifodalanadi, ammo kishilar ustiga ko'rpa yopmoq, faqat, ko'rpa *ū:rt* shaklida qo'llanadi.

muqatīš ~ kesatish. Opam ham, ajoyib, bechora kelinini kesatib o'tirgani qo'ymadi. ~ *To:tīmam qizīq, ba:jayuš kā:nnini kā:kātip, muqatīp o:tqīzyajo:q*.

je:rik ~ homiladorlik davrida ayol organizmida, ruhiyatida kechadigan o'zgarishlar (boshqorong'ilik, taksikoz). *Kā:nnim a:lmaya je:rigo:ptī. Z'la: žā: ja:man je:rigo:ladākā, o:bšī:m, he:šnā:sā je:mājdākā*.

jesir ~ eri yoki xotini o'lgan yoki ajrashgan, boshqa turmush qilmagan shaxs. Adabiy tilda *beva* so'zi qo'llanadi. *Jesir* arabcha so'z bo'lib, qullar, asirlar degan ma'noni bildiradi¹. Lekin Iqon shevasida *yesir* so'zi ma'nosi faqat turmushdan qolib, qayta turmush qilmagan shaxslar (erkak, ayol)ga nisbatan qo'llanishini ta'kidlaymiz. *Je:siriñ kō:rgān kū:ni qu:rsī. Je:sir ba:šī blām ajto:m o:n ba:lanīñ bā:rini o:qītīp, ža:j- ža:jīya qo:jdi-yu*.

ži:n ~ jahl. Eringning jahlini chiqazmay, aytgani ni qil. ~ *Ba:ji:ñ ži:nigā tā:gmāj e:tkānini qī*. Jahli ci-

qsa hech kimni tanimaydi. ~ *Ži:ni čiqsa he:š kimni ta:nīmajdi*.

āpāžāk ~ so'lak. So'lak bezlaridan ishlab chiqarilgan yopishqoq suyuqlik, og'iz suvi². Bolangning so'lagini art. ~ *Ba:lajīñ āpāžiqini sūr*.

tu:š ~ ro'para, qarama-qarshi tomon. Ro'paramdan dugonam chiqib qoldi. ~ *Tu:šimdīn e:šim čiqīp qa:di*. Qarama-qarshi o'tirdik. ~ *Tu:šma-tu:š o:tīrdīq*.

u:š ~ chiroq. *Ja:tado:nda u:šni ö:čiriñnār. U:š o:masa, i:šām ū:nmajdi*.

boša:ndī ~ tug'di. Zūlpija: *boša:nīptī, tū:bāš kārāk. A:man-āsān boša:nīp a:sī dep, a:pama u:čiqila:tyam-ma*.

čirqaš, čirqabā:riš ~ irg'itmoq, uloqtirib tashlamoq. *Da:rbīz a:rtīšya kū:šlik o:līš kārāk, ja:masam bi:r-bi:rigā čirqayanda je:tkizip pā:rammajdi. Hāmmā ya:pačiliqni a:rqalamaj, čirqabā:r. l:tkā sūjak čirqayanda q'maj, a:jdaq q'p b'*.

alaqa:n ~ kaft. *Alaqa:nīmda o:jnatīp, kāttā qīyam-ma. Ji:ni čiqīp turyanākā, alaqa:nī blām sa:p qa:di, o:jdaqirda, šundīn ke:j'n sō:llāšmāj qo:jdim*.

qušja:stīq ~ paryostiq. Parrandalar patidan qilingan yostiq. *Qa:rtajyanda qušja:stīqqa o:qšab hā:m-mā nā:sāniñ jumša:yī jaqa:dākā. Qī:zima a:lī qora:y-ja:stīq, a:lī qušja:stīq q'dīm*.

a:jīm ~ farq. Sochni ikki tomonga tarashdan boshda hosil bo'ladigan yo'l, chiziq. *A:jam če:čimisni ta:qqanda toyrī a:jīm a:ssa jīylajdo:ni:dīm, toyrī a:jīmni kā:mpirlār a:čadi, dep. Āmi:nā ajto:m hār da:jīm qī-išiq a:jīm a:čip, ikki če:š taqado:ni:dīñ. Žaxa:n to:tīm Güli:jīñ če:čini toyrī a:jīm a:čip, čākā če:š, majda če:š taqado:ni:dīñ*.

x'ja:l ~ kashta. *A:ldīn hā:mmāmis ke:šqurun o:tīrip, k'jā: gā bārādo:n dā:sma:lyāčaj še:r ja:zīp, gü:l sa:p u:šta x'ja:l tikkānmis. Tā:rinžākkā x'ja:l tikādo:n x'ja:lci ta:ptīm, žā: ma:jdalap, čirā:jlik tikā:dā:kā*.

ža:j ~ past tovush, past tezlik bilan, sezilar-sezilmas harakatni bildiruvchi asta, sekin so'zlari o'rnida qo'llanadi: *Ža:j sō:llā, hā:mmā uxla:ttī. Ža:j i:slājdi, b'raq i:šini žā: ta:za q'la:d*.

kāvāk ~ qo'ziqorin. *Kiškina gā:zimizdā dalaya kāvāk te:riškā čiqado:ni:dīq. Türkista:ndīn kāle:t-kāndā jo:līñ če:tidā rasa: kāvāk satje:tqan ākā, a:yīm kāp ala be:dim, qo:yīrišni bilāsānā?*

O'zbek adabiy tilida sinonimi bo'lmagan sheva so'zlari:

qasaxa:na ~ aksiga olib, (qasdiga olib) ish-harakatning xohishga zid ravishda namoyon bo'lishi. *Qasaxa:na, bugun bā:nni:sāgājām ba:rišīm kārāk. Mān barama de:gānda, qasaxa:na jo:lam bā:kilīpti*.

dā:šāk ~ danak (forscha mag'izning qattiq qobig'i)

¹Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. II жилд. — Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. — Б. 16.

²Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. III жилд. — Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. — Б. 613.

adabiy tilda o'rik, shaftoli va boshqa mevalarning ichidagi mag'iz va qattiq po'choqdan iborat urug'i. Shevada mevaning qattiq po'chog'i *dā:šāk*, mag'zi esa *dā:nāk* deyiladi¹. *A:jam bi qa:b dā:šāk jiyip qo:-jipti, ha:li uni čaqip, bā:rimiskā ō:lāšādi. Dā:nākni mā:jizgā a:ralaštirip qoj.*

pisāk ~ hovli o'ralgan devor. Uyning devori esa *dāva:l* deyiladi. *Pisākni bājigra:q ja:pīš kārāk, ha:vli kō:rimmajdo:n o:sī. Do:niya jer a:p, pisāgini qa:jirip qo:jdiq.*

jībīsqi ~ pismiqlab, indamaj ish bitiradigan kishi. *Jā:gālār jībīsqi lab i:s pitirādi, he:š nā:sā bilmāgāndaq.*

tā:všik ~ sigirdan sog'ib olingan sutni bir qancha qo'shnilar orasida navbatma-navbat oldi-berdi qilishi. Ya'ni, sog'ilgan sutga har kuni ishlov berib, vaqt va kuch sarflamaslik uchun navbat bilan bir xil miqdordagi sutni berishgan. *Bügün tā:všik kümdādi? Tā:všikkā čiqqa:n xa:tinnarīn sō:zi bo:majdi.*

ō:lčāk ~ chelakdagi sutni o'lchash uchun ishlatiladigan, daraxt novdasidan tayyorlangan maxsus asbob. *A:jaṇa e:t, sū:t ā:kkirgāndā, ō:lčāk ā:sidin čiqma:sī.*

ō:zānāk ~ kimsalarning fikrini qabul qilmaydigan, xato bo'lsa ham o'z bilganidan qaytmaydigan kishi. *Ō:zānāklīk qimaj, kā:ttā sō:llāgāndā qula:q sa:. Se:ndaq kā:sr, ō:zānāk ba:lanī kō:rgān āmāsmā.*

ja:tqiziš ~ o'g'il bolalarni sunnat qilish. *Qo:šin ba:llarīnī ja:tqizvani:di, šuṇa xuda:j qilje:tti. E:rkin blām Almasnī qača:n ja:tqizasa, mā:htāp čiqqučaj, b'r ja:qliq q'saj.*

ā:biržis ~ besaranjomlik. *Bajayuš qī:zim ā:biržip ke:tti, ba:llarī ha:li ja:š.*

ā:sālāṇ (aqli, esi lang) ~ esi past, aqli zaif. *U ā:sālāṇ nī:s qile:qanīnī ō:zijām bilmajdi, u:ndin xa:pa o:maja qo:j.*

a:jqariš ~ doimiy ravishda yordamlashish, qarashish. *O:jdaqirda, že:nnāriṇājām a:jqaryajsa. Qī:(j) nalip qa:masī dep, a:jqarip turipma.*

sa:saj ~ turmushga chiqmagan qari qiz: *Ra:jilanīṇ e:rgā tā:gmāgān sa:saj qī:zi ba:r ā:kā.*

da:lbasā ~ shoshmoq, o'zini yo'qotmoq, bilmasa ham bir narsa demok. *kālākā* ~ masxara // kamsitish. *Sa:ṇa kālākā qillosh o:sa qa:tīrasa, se:nijām kālākā qīsa, ja:qadna?*

mīsqa:lči ~ kishilardagi turli kamchiliklarni kamsitib, laqab qo'yuvchi.

kūjāz ~ haddan ziyod saranjom, sarishta kishilarga nisbatan qo'llanadi. *Kō:z tā:gmāsi, kā:linim jā: kūjāz čiqti, ō:jigājām, ba:la-ča:yasīyajam ja:xši qa:rajdi.*

mō:gādāk ~ jismonan tug'ma nuqsonlari bo'lgan kishilarga nisbatan qo'llanadi (soqov, cho'loq, kar, ko'r...).

qu:nīš ~ suyagi chiqib qolgan, bukriga o'xshash kishilar. *A:jaš to:tīṇ ja:šlīyidīn šundaq, qu:nīš o:p qa:yan ā:kā.*

ārāzān ~ doim kir yuradigan, kiyimining kiri archilmaydigan kishi.

bā:tba:q ~ yuzsiz, uyatsiz (salbiy bo'yoqdorlik kuchli ifodalangan). *O:ray o:p turip, šu i:šni qīyan so:n kā:lāmmajdi-dā, bā:ti jo:q, bā:tba:q.*

šibā:r ~ uddaburo, ishiga puxta. *Ba:qaš dā:dām (amakivachcha) jā: šibā:r.*

mīlžīṇ ~ ezma, ishni ham sekin bajaradigan, gapni ham ezib gapiradigan kishi. *Sa:bir mīlžīṇya qo:šlīp, ta:yamam mīlžīṇnap jūripti.*

je:ṇsāk ~ non yopish va nonni o'choqdan uzib olish paytida qo'lni o'tdan saqlash uchun tirsakkacha kiyiladigan yenglik.

ū:t(iš) ~ olovda kuydirish. Ot, sigir, qo'y kabi hayvonlarning kalla-tuyog'ini va parrandalarning patina kuydirib tozalash. *Kālā- pa:časīnī ū:tīṇnā? Ta:(v)uqnī ja:xšīlap ū:ti bār. Pe:štin uza:qraq tur, ta: xa:latīṇnī ū:tibama.*

kōlānīsh ~ hayotda o'z o'rniga ega bo'lib, baxtli, to'kis yashash.

Ā:kāžim kō:lāngān, e:tkānī e:tkān, de:gānī de:gān. Kiškānāsi kō:lāngān, a:ja- ākāsīgā ja:xši qa:rajdi, tavušqa:nnaryajam a:jqaradi.

Xulosa shuki, Iqon shevasi leksik tarkibining asosiy qismini, shubhasiz, barcha turkiy tillarga xos bo'lgan leksik qatlam tashkil qiladi. Shuningdek, mazkur sheva o'zbek adabiy tili va boshqa o'zbek shevalari leksikasidan keskin farq qilmagan holda, ayrim o'ziga xos leksik xususiyatlari ham mavjud. Ushbu xususiyat shevaning tarixiy shakllanishi hamda uning O'zbekiston hududidan tashqarida mustaqil rivojlanishi bilan izohlanadi.

Resume. This article is dedicated to the Ikan dialect of the Uzbek language and describes the specific dialect vocabulary included in the dictionary of this dialect.

Резюме. Эта статья посвящена иканскому диалекту узбекского языка и описывает уникальную диалектную лексику, входящую в состав словаря данного диалекта.

¹ Bu haqda qarang: Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. — Toshkent: Nodirabegim, 2021. — B. 101.